

## TURKIY XALQLARNING DAVLATCHILIK TO‘G‘RISIDAGI DASTLABKI FALSAFIY QARASHLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715588>

Ismayilov Akmal Ziyadillayevich

O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: [akmalismailov1979@gmail.com](mailto:akmalismailov1979@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0002-5209-2536>

+998993003283

**Annotatsiya:** Maqolada qadimdan turkiy xalqlarning davlatchilikni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha falsafiy qarashlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, qadidan har bir mamlakat, ya’ni sivilizatsiya o‘z hududi, aholisub’ektlari, o‘z davlatchiligidagi ega bo‘lganligiga, takrorlanmas moddiy, ma’naviy, siyosiy-huquqiy madaniyatlariga, jumladan huquqiy normalarga ega bo‘lganligiga etibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat, Avesto, Turon, Turkiston, Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d, Alp Er To‘nga, Sak-Iskit.

**Abstract:** The article provides a detailed analysis of the philosophical views of the ancient Turkic peoples on the organization and management of statehood. It also draws attention to the fact that each country, that is, civilization, has its own territory, population-subjects, its own statehood, and has unique material, spiritual, political and legal cultures, including legal norms.

**Key words:** State, Avesta, Turan, Turkestan, Khorezm, Bactria, Sogd, Alp Er Tonga, Sak-Iskit.

O‘zbekiston tarixi darsliklarida Vatanimiz hududida davlatchilik qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘d mamlakatlaridan boshlanishi ko‘rsatilgan. Bunda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi choragida yuzaga kelgan “Avesto” muqaddas kitobi, miloddan avvalgi VIII-VII asrlardayoq Samarqand, Buxoro, Termiz, Xazorasp, Shahrisabz (Kash, Kesh), Quva shaharlar tarkib topganligi to‘g‘risidagi arxeologik matereallar, yunon-rim tarixchilari yozma ishlari va Xitoy manbalariga tayanilgan. “Ammo, - deydi tarixchi olimlardan Azamat Ziyo, - miloddan avvalgi 3-2-ming yilliklarda mamlakatimiz Shimoliy Hindiston, Shazira (Mesopotamiya), Misr kabi o‘lkalar bilan bordi keldi qilganlar” [1, 26-b.]. U bu haqda A.Oppenxeymning “Древняя Месопотамия” (M., 1990) asaridan faktlarni keltiradi. Midiya va Ossuriya bilan hududimiz qadimiy xalqlarining aloqalari, ular bilan tinchlik shartnomalari, savdo-sotiq aloqalari to‘g‘risida, qadimshunos olim E.V.Rtveladze ham qator faktlarni keltirgan. Demak, tariximiz darsliklarda qayd etilganiga nisbatan ham yanada qadimiyroqdir. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So‘g‘ddan ham ilgari davlatchilik bo‘lgandir. O‘zingiz o‘ylang, agar davlatchilik muayyan ma’muriy boshqaruv tizimi yuzaga kelmasa, qanday qilib eramizdan

oldingi 3-2-ming yilliklarda diplomatik aloqalar kelib chiqadi. Shuning uchun ham ba'zan xalqimizning qadim zamonlardan beri yetib kelayotgan xalq og'zaki ijodiga ham murojaat etishga to'g'ri keladi. Xalq og'zaki ijodiga tayangan holda olimlarimizdan professor H.Boboev Tur yoki Turon mamlakati qanday kelib chiqqan, degan savolni o'rtaga tashlaydi. Birinchi mamlakat balki Tur mamlakati bo'lganidir?!

Tabariyning "Tabariy tarixi" yoki "Tarixi Tabariy", Alisher Navoiyning "Tarixi muluki ajam", Firdavsiyning "Shohnoma", Ulugbekning "To'rt ulus tarixi", Alovuddin Ash-Shotir Dimishqiyning "Kitobi nuzxatun-nozir" va boshqa shu kabi asarlarda Eron va Turonda, ya'ni Ajam mamlakatida Odam atodan boshlab keyingi davrlar – davlatchilikning kelib chiqishi va o'rta asrlarga qadar davomati bayon qilingan. Hikoyalarda yer yuzini to'fon bosgandan so'ng yer yuzida qolgan yagona Hukmdor Nuh alayhissalom bo'lganligi va dunyoni uch o'g'li-Som, Hom va Yofaslarga bo'lib bergenligi keltiriladi. Nuh payg'ambarning to'liq ismi-sharifi kuyidagicha: Nuh Bahoulloh alayhissalom ibn Matushulk ibn Axnux ibn Bard ibn Mahloyil ibn Kayton ibn Anush ibn Shas ibn Odam alayhissalom. Yofasning to'qqiz o'g'li bo'lib, ulardan eng to'ng'ichi Tur(k) bo'lib, o'g'illari Yofas vafotidan so'ng Turni uning o'rniga hokim qilib saylashadi. Firdavsiyning "Shohnoma" asarida esa biroz farqni ko'ramiz. Fariddunning uch o'g'ildan o'rtanchasi Tur bo'lganligi va hozirgi Markaziy Osiyo hududi aholisi uning avlodlari ekanligi qayd etilgan. Shuning uchun professor H.Boboev shunday yozadi: "Bizning fikrimizcha, Tur va uning avlodlari forslardan mustaqil holda Turon zaminida birinchi bor shohlik qilgan, ilk bor davlatchilikka asos solgan va qonun-qoidani yaratgan shaxslardir. Zotan, Turon va uning nomi bilan bog'liq bo'lib, bugungi O'zbekiston esa Turonning Markaziy qismida joylashgan, ma'lum ma'noda Tur merosxo'ri bo'lgan davlatdir... fors yerlarida Qayumars shohlik qilgan bo'lsa, Turonda Turk shohlik qilgan" [2, 26-27-b.]. Demak, Tur va Turon so'zleri zamirida kelib chiqishimiz, davlatchiligidan qadimiyligimizga oid xalq og'zaki ijodi namunalarini, afsonalarni o'zida jo etgan yozma manbalarni o'quvchi yoshlarimiz, talabalarimizga tarix, davlat va huquq tarixi, adabiyot tarixi fanlari orqali yetkazish, birinchidan, ilmiy izlanishlarga undashi bilan, ikkinchidan, faxrlanish hissini kuchaytirish bilan ma'naviyatimizni boyitadi.

Tarix fani xalq og'zaki ijodi namunalariga, uning yozma manbalariga ham, uning xar bir durdonasiga ham tayanib real voqealikni ifoda etishi mumkin. Avloddan-avlodga o'tib, sayqallanilib, badiiylashib shu holga kelgan bo'lishi mumkin, degan nuqtanazarda turadi. Shuning uchun ham manbalar kam bo'lgan joyda, xalq og'zaki ijodi namunalarini tarixiy voqelikka yondashishda yordamchi manba vazifasini bajarishi ham mumkin. Ularning eng asosiy xususiyati - kishini ilmiy ijodiy fikrlashiga turtki beradi. Shundayin, "Ajam" so'zi arabchadan Turon va Eron mamlakatlarini, bu mamlakatlarning umumiyligi, ba'zan birligini ifodalagan. "Muluk" so'zi esa "davlat" ma'nosida ishlatilgan. Bu so'zlardan "Avesto" asarida, Tabariyning "Tarixi Tabariy". Alisher Navoiyning "Muluki Ajam" (Ajam davlatining tarixi). Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarida ham ko'proq foydalilanigan. Firdavsiy Turni Qayumars sulolasiga mansub Ajam shohi Fariddunning uch o'g'lining o'rtanchasi, deb ko'rsatgan. Ammo boshqa manbalarda u Nuh payg'ambarimizning o'g'li Yofasning to'ng'ich o'g'li, deyilgan.

Alisher Navoiy asarida Ajam davlati to‘rt sulola (peshdadiylar, Kayoniylar, Ashsoniylar va Sosoniylar) lar tarixidan iborat bo‘lib, 4336 yil 10 oy hukmronlik qilganligi tarixiy ma’lumotlarga tayanib ko‘rsatilgan. Gap Ajam yurti – Eron va Turon o‘lkalarining yaqinligi ustida ketar ekan, boshqa tarixiy faktlarga murojaat qilaylik.

“Avesto” asarida birinchi navbatda Xorazm, so‘ngra boshqa joylar, jumladan Avrava, ya’ni Tus viloyat (hozirgi Eronning Xuroson viloyati), Ray (hozirgi Tehron atroflari), Voiha Girta, ya’ni Qobul shaharlari, joylari qayd etilgan. Demak, zardushtiylik nafaqat Markaziy Osiyo, balki Eron va Afg‘oniston xalqlarining ham ta’limoti bo‘lib xizmat qilgan. Bu faktlar ushbu xalqlar o‘rtasida umumiylilik, ba’zan davlatchilik birliklari ham bo‘lgan, degan xulosaga olib keladi. E’tiborni quyidagi faktga qarataylik: Abu Rayhon Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida Eron podshohi Doro I davrida “Avesto” to‘liq holida 12 ming qoramol terisiga zarxal harflar bilan yozilganligi qayd etilgan. Boshqa faktlarni olaylik. Grek tarixchilari Dnepr daryosidan to Tyanshan tog‘larigacha hududdagi aholini skiflar deb ataganlar. A.B.Ditmerring yozishicha, “Skiflar O‘rta Osiyodan tarqalgan va ular sharqiy Eron tillarida gaplashgan [3. 46-b]. Shuningdek, grek tarixchilaridan Ktesiy yozishicha, eramizgacha VII asr oxiri-VI asr boshida parfyanlar Midiya hukmronligiga qarshi Zarina boshliq saklarni yordamga chaqirganlar. So‘ngra midiyaliklar va saklar o‘rtasida tinchlik shartnomasi tuzilgan. Ushbu va boshqa faktlar Turon va Eron xalqlarining umumiyligini, yaqinligini va yondosh va qachondir qondosh ekanligini, diniy e’tiqodi bir xil ekanliklarini anglatadi va Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar asoslab bergen Ajam davlati bo‘lganligini anglatmaydi-mi?. Shuningdek, so‘nggi faktlar - saklarning parfyanlarga yordami zardushtiylik ta’limotining kelib chiqishi va g‘arbgaga tarqalishi qadimda katta Xorazm, Baqtriya va So‘g‘dgacha ham davlatchilik bo‘lganligidan dalolat bermaydi-mi?

Hozirgi davr tadqiqotchilaridan H.Boboev, Z.Muqimov, N.Rahmonov va boshqalar Alp Er To‘nga (Eroniylar uni Afrosiyob deb atashganlar) nomli davlat Turon o‘lkasiga eramizdan oldingi VII asrlarda mavjud bo‘lgan degan versiyani ilgari suradilar. Bu davlatning harobalari hozirgi Samarqand shahri mavjudligi to‘g‘risida arxeologik izlanishlar birmuncha faktlarni bermoqda.

Alp Er To‘nga davlati to‘g‘risida Mahmud Qoshqariyning “Devoni lug‘ati turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam”, Tabariyning “Tarixi Tabariy”, Firdavsiyning “Shohnoma”, N.Rahmonovning “Turk hoqonligi”, A.Abdurahmonovning “Alp Er Tunga”, “Materialy po etnicheskoy istorii tyurkskix narodov sentralnoy Azii” kabi manbalarda fikrlar yuritilgan. Uning eramizdan avvalgi VII asrda Markaziy Osiyo, Enasoy va Irtish daryolarida yashovchi xalqlarni, Eron, Iroq va Misr kabi mamlakatlarni birlashtirganligi, tarixda Sak-Iskit (Iskiflar) nomli davlatni shakllantirganligi to‘g‘risida fikrlar mavjud.

Professor Z.Muqimov, N.Rahmonovning dalillari yordamida Alp Er To‘ngani eramizdan oldingi 626 yilda Midiya podshosi Kayxusrav zaharlab o‘ldirganligini,

so'ngra sak turklari tarqalib keta boshlaganini keltiradi [4, 21-b.]. Mazkur afsonaviy faktlar qadimda davlatchilik Eron va Turonda bir vaqtida parallel holda yuzaga kela boshlaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu halqlar kelib chiqishida aloqadorliklar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoda qadimgi davr sivilizatsiyalari va ularning davlatchiligi davriy turkumlanganida kichik hudud (makon) va kichik tarixiy vaqt (zamon)da mavjud bo'lgan mamlakatlar va ulardagi davlatchilik e'tibordan chetda qolgan. Ulardagi davlatchilik tipi-egalik qilish, deb tavsiflangan. Boshqaruva shakli qabila boshliqlari tomonidan avloddan-avlodga meros qilib o'tkazilgan. Bu holda tadqiqotchilar E.V.Rtveladze, A.X.Saidov va Ye.V.Abdullaevlar quyidagicha yozishgan: "Davlat birlashmasining ushbu tipi kichikroq o'lka bo'lgan. Yunon-Baqtriya podsholigi qulagach, Baqtriyaga kelgan Chjan-Szyan tomonidan miloddan avvalgi 128 yilda yoki miloddan avvalgi 126 yilda qayd etilgan. Unga muvofiq Baktriya ko'plab mayda mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan. Bu yerda deyarli har bir shahar o'z hukmdorini yetishtirgan.

Xitoy manbalarida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i xududida 55 ta o'lka mavjudligi ko'rsatiladi. Ular muayyan mustaqillikdan foydalangan va o'z tashqi siyosatini yuritishgan, jumladan Xitoy bilan diplomatik munosabatlari o'rnatgan" [5, 58-b.].

Agar hududimizda mavjud bo'lgan qadimgi davr sivilizatsiyalari davlatchiligining umumiyligi tomonlariga e'tibor bersak, ularning sotsial asosini urug', qabilalar tashkil etganligini, davlat boshqaruvini muayyan sulolalar, boy sulolalar egallaganligini ko'ramiz. Va demak, ular davlat boshqaruvining podsholik formasi kelib chiqqanligini ko'ramiz. Hududimizdagi qadimgi davr davlatchiligining moddiy madaniy asosini esa dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, mulkning turli xilligi, jumladan davlat mulkining mavjudligi tashkil etganligini, umumiyligi ishlar, masalan, kanal qazib suv chiqarish ishlari jamoaviy holda bajarilganligini ko'ramiz. Hududimizdagи qadimgi davr sivilizatsiyalari, ya'ni mamlakatlar davlatchiliklarining ma'naviy madaniy asosini asosan zardushtiylig dini va uning muqaddas kitobi - "Avesto" tashkil etganligini ko'ramiz. Urug'-qabiladoshlik aloqalari, mulkdorlarning kelib chiqishi, ularni birlashtirish, kelishitirish zaruriyati jamiyat darajasida podsholik va konfederativ podsholiklarni (masalan, Qang davlati), ya'ni mutloq va cheklangan monarxiyalarni taqozo etgan va keltirib chiqargan. Ammo bu umumiyliklardan tashqari har bir mamlakat, ya'ni sivilizatsiya o'z hududi, aholisi-sub'ektlari, o'z davlatchiligidagi ega bo'lgan. Takrorlanmas moddiy, ma'naviy, siyosiy-huquqiy madaniyatlariga, jumladan huquqiy normalarga ega bo'lgan. Davlat ayni vaqtida sivilizatsiya-mamlakatlarning o'ziga xos bir butunligini ta'minlagan. Har bir sivilizatsiyaning mavjud asosiy qabilalari yoki qabila boshliqlari, ularning tarkibidagi sulolalar har bir kadimgi sivilizatsiyaning, jumladan davlatchiligin belgilagan. Tovar-pul munosabatlari avvalo bor bitta mamlakatda yuz bergan. U davlat tomonidan boshqarilgan. Har bir sivilizatsiyada hokimiyat o'ziga xos, mustaqil institut sifatida amal qilgan. Qadimda

mavjud bo‘lgan har bir sivilizatsiyaning nomlanishining o‘ziyoq uning alohidaligini aks ettiradi. Ushbu o‘ziga xoslik-alohidalik davlatchilikni, uning mustaqilligini belgilagan. Bu sivilizatsiyalar davlatlari o‘z faoliyatlarini mustaqil holda yuritganlar, o‘z tangalarini zabt ham etganlar. Demak, yuqorida ko‘rsatilgan qadimgi davr sivilizatsiyalari davlatchiligidagi umumiyliliklar bilan birgalikda o‘ziga xosliklar mavjudki, bu o‘ziga xoslik ulardagi aholi-subtratning o‘ziga xosligi bilan, bu aholining muayyan hududda o‘z ishlab chiqarishi va turmush tarzini tashkil etganligi bilan, ularning manfaatiga muvofiq keluvchi davlat institutlarining shakllantirilganligi bilan va bu davlat institutlarining o‘z hududi-mamlakatida faoliyat yuritishlari bilan belgilanadi.

Hozirgi Qozoqiston, Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston xalqlarining qadimi bitta bo‘lib, bu nomlar, jumladan, “o‘zbek ulusi”, tarixning keyingi davrlari-milodiy davrlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatadi. Tarixning xali biz bilmagan tomonlarini topish, yarim afsonaviy bo‘lsa-da, ushbu faktlarni o‘quvchi va talaba yoshlarga yetkazish ona-yurtimizga bo‘lgan e’tikodni kuchaytiradi, qadimiyligimizni eslatib turadi. Holbuki, tarixga oid darsliklarda bu hakda deyarli lom-lim deyilmayapti.

Ilmiy adabiyotlarda o‘zbek xalqi tarkibida 92 ta urug‘ borligi qayd etilgan. Ammo bu urug‘-qavmlar faqat hozirgi o‘zbek halqiga tegishli desak xato bo‘ladi. Masalan, qo‘ng‘iroq urug‘i o‘zbeklarda ham bor, kozoq xalqida xam mavjud. Demak, 92 ta urug‘ barcha turkiy xalqlarga mansub. “O‘zbek” so‘zi esa bir qancha turkiy urug‘larni birlashtiruvchi tushuncha. “O‘zbek” so‘zi mustaqil, o‘ziga bek degan ma’nolarni beradi. Bu so‘zning ma’nosidan ismlar ham kelib chiqqan. “O‘zbeklar” so‘zining kelib chiqishi to‘g‘risida Mirzo Ulug‘bek o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida shunday fikrlarni keltirgan: “Hazrati Sayyid ota ularga (Ollohnning rahmati va roziligi bo‘lsin) hamda Sulton Muhammad O‘zbekxon bilan hamkorlikda kelgan kishilardan: “Bu kelgan kim?” deb so‘radilar. ularning sardorlari va podsholari o‘zbekxon bo‘lgani uchun ularni o‘zbek deb atardilar. Shu sababli kelgan kishilar “o‘zbek” deb atala boshlandi. Qolib ketgan kishilar esa “qalmoq bo‘ldilar”. Demak, qolib ketganlar “qalmoq” deb yuritila boshlagan. Bu holat Oltin O‘rda va uning atrofidagilarning islom dini marosimlaridan birida yuz bergen degan fikrlar mavjud. “O‘zbek”, “Ulusi o‘zbek” so‘zleri XIII-XIV asrlardagi tarixchilar asarlarida uchraydi, deydi professor B.Axmedov [6. 11-b]. Shuning uchun ham, “o‘zbek” so‘zi deydi professor H.Boboev, Sulton Muhammad O‘zbekxon (1342 yilda vafot etgan) gacha mavjud bo‘lgan. O‘zbekxon ismining qo‘yilishi ham shundan dalolat beradi. Dashti Qipchoqdagi bir necha urug‘larning birlashib o‘zbek millati va davlatchiligi darajasiga bir necha asrlarni bosib o‘tgan.

Xullas, yurtimizda hali tarix bilmagan bundan 4-3-minginchiligi yillarda davlatlar bo‘lib, ular hozirgi Turon va Erondagi mavjud davlatlarning tarixiy ildizlaridir. Demak, Alisher Navoiylarda ilgari surilgan Ajam davlatini, so‘ngra Turondagi eng qadimiy davlatlarni oydinlashtirish xozirgi davr fanlarining vazifalaridir. Turon so‘zi “Turkiston general-gubernatorligi”, “Turkiston avtonom Respublikasi” so‘zlar, hududlar darajasiga chiqdi. Ammo “Turon” so‘zi sovet davrida haqiqatdan ataylabdan siqib chiqarildi. Uning o‘rnida totalitar so‘zi bilan

O‘zbekiston, Qozoqiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmaniston Sovet Sotsialistik Respublikalari qaror toptirildi. Sobiq ushbu respublikalar zaminida hozirgi beshta mustaqil respublikalar kelib chiqdi. Bu xalqlar aslida kelib chiqishimiz bir bo‘lgan xalqlarmiz, bir so‘z bilan aytganda “Turkiston umumiy uyimiz”dir. Bu xalqlarni jipslashtirish, keyingi so‘zlar tarixning keyingi davrlarida kelib chiqqanligini yoshlarga tushuntirish ularni tarixga to‘g‘ri, xolisona ilmiy yondashishga olib boradi.

Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixini quyidagicha sivilizatsion davrlashtirish mumkin:

1. Qadimgi davr sivilizatsiyalari davlatlari. Qadimgi davr sivilizatsiyalari eramizdan oldingi IX asrdan eramizning V asrining ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Professor H. Bobobekov qadimgi davr sivilizatsiyalariga quyidagi o‘n bitta davlatlarni kiritgan. Shulardan uchtasi ahmoniyalar mustamlakasiga qadar bo‘lgan eramizdan oldingi IX-VII asrlarda mavjud bo‘lgan “Katta Xorazm, Qadimgi Baktriya va Qadimgi So‘g‘d davlatlari. Markaziy Osiyo hududida eramizdan oldingi VI asrdan IV asr yarmigacha Ahmoniyalar podsholigi hukmronligi, eramizdan oldingi IV asrning yarmidan III asr o‘rtalarigacha Salavkiylar davlati xukmronligi, so‘ngra Salavkiylar davlati ikkiga bo‘linib, eramizdan oldingi 247 yildan boshlab Arshak boshchiligidagi Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatlari qaror topganligi ko‘rsatilgan. Yunon-Baqtriya podsholigi eramizdan avvalgi III asr o‘rtalaridan II asr o‘rtalarigacha mavjud bo‘lib turgan. Eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Davan podsholigi ham kelib chiqqan va u keyinchalik Eftalitlar davlati tarkibiga kirgan. Eramizdan avvalgi III asr boshlaridan eramizning V asrlarigacha ma’muriy markazi O‘tror shahri bo‘lgan Qang davlati ham mavjud bo‘lgan. Eramizning I-IV asrlarida Kushonlar imperiyasi hukmronlik qildi. [7. 508-b]

2. O‘rta asrlar sivilizatsiyalari davlatlari. O‘rta asr sivilizatsiyalariga Eftalitlar, Turk hoqonligi, arab xalifaligiga qarashli bo‘lgan mustamlaka Movaraunnahr o‘lkasi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Chig‘atoy ulusi, Temuriylar, Shayboniyxon va Ashtarkoniylar davlatlari kiradi.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan mustamlaka sivilizatsiyalar-Turkiston General-gubernatorligi va O‘zbekiston SSR davlatlari qaror topdi.

4. 1991 yil 31 avgustdan boshlab o‘lkamiz O‘zbekiston yoki O‘zbekiston Respublikasi nomi bilan yuritiladigan mustaqil mamlakatga – o‘z davlatchilik asoslari va fuqarolariga ega mustaqil sivilizatsiyaga aylandi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Azamat Zio. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: 2000.
2. Boboev H. O‘zbek davlatchiligi tarixi. 1-kitob. – T.: “Fan”, 2004.
3. Дитмер А.Б. От скифии до Элефантины.-М., 1961.
4. Muqimov 3. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. - Samarqand. 1998.

5. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullaev Ye.V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T.: "Adolat", 2001.
6. Axmedov B. O'zbek ulusi. -T.: "Hyp", 1992.
7. Ikramov R.A. Ismayilov A.Z. (2020). Historical and theoretical roots of establishing a democratic law in Uzbekistan. //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) 6(10).